



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
IV-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
IV-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev**ich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI .....	12
<b>Qarajanova Gulnoza Tolliyevna</b>	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
<b>Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
<b>Mirzataev Salamat Muratbaevich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI .....	28
<b>Tureev Azizbek Abatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
<b>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</b>	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
<b>Sharipov Kongratbay Avezimbetovich</b>	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
<b>Ravshanova Mohinur O'rolovna</b>	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
<b>Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
<b>Qaraev Anvar Botirovich</b>	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY .....	61
<b>Toirova Mubina</b>	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
<b>Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
<b>Rizayeva Nilufar Oblakulovna</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	79
<b>Abdulla Mavlonov</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
<b>Komekova Gulzira Sharbaevna</b>	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	87
<b>Бекматов Акмал Курбонмахматович</b>	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI .....	93
<b>Azamatova G. I.</b>	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI .....	98
<b>Omonov Olim Murodullayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	104
<b>Isxakova Sarvar Ayubovna</b>	
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН) .....	109
<b>Жанайдарова Камола Абаевна</b>	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	115
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI .....	123
<b>Nuraliyeva Komila Sanaqulovna</b>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	130
<b>Utkirova Jasmina Jasur qizi</b>	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI .....	135
<b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI .....	141
<b>Xakimov D.R.</b>	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ .....	151
<b>Эркинбаева Камила Жавлонбековна</b>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	156
<b>Tangirkulov Bekzod Boxadirovich</b>	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI .....	162
<b>Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna</b>	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	171
<b>Jalalova Dildora Jamolovna</b>	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	174
<b>Лана Цхай</b>	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI .....	181
<b>G'ozdiyeva Moxira Rustam qizi</b>	



# UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI

**G'oziyeva Moxira Rustam qizi**  
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**“Buxgalteriya hisobi” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi**  
**Email: moxira.gozieva@mail.ru**  
**ORCID: 0009-0006-6758-8007**

**Annotatsiya:** Buxgalteriya hisobi subyektlari amaliyotida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va hisobga olish, dastlabki tan olishda va undan keyingi qayta baholash, haqqoniy qiymatini aniqlash, qadrsizlanishini tekshirish hamda ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda to'g'ri va ishonchli aks ettirish masalalariga oid muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ushbu maqolada biz asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobining amaldagi holati va uni takomillashtirish masalasiga batafsil to'xtalib, ularni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tdik.

**Kalit so'zlar:** uzoq muddatli aktivlar, asosiy vositalar, eskirish, amortizatsiya normalari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Soliq kodeksi, moliyaviy hisobot, qaydnoma, tan olish, baholash, hisobga olish.

**Аннотация:** В практике субъектов бухгалтерского учета наблюдаются проблемы, связанные с начислением и учетом амортизации основных средств, первоначальным признанием и последующей переоценкой, определением справедливой стоимости, проверкой обесценения и правильным и достоверным отражением информации о них в финансовой отчетности. В данной статье мы подробно остановились на текущем состоянии учета амортизации основных средств и вопросе его совершенствования, а также представили предложения и рекомендации по их совершенствованию.

**Ключевые слова:** долгосрочные активы, основные средства, износ, нормы амортизации, нормативно-правовые документы, Налоговый кодекс, финансовая отчетность, отчетность, признание, оценка, учет.

**Abstract:** In the practice of accounting entities, problems are observed regarding the calculation and accounting of depreciation on fixed assets, initial recognition and subsequent revaluation, determination of fair value, verification of impairment, and the correct and reliable reflection of information regarding them in financial statements. In this article, we focused in detail on the current state of fixed asset depreciation accounting and the issue of its improvement, providing suggestions and recommendations for their improvement.

**Keywords:** long-term assets, fixed assets, depreciation, depreciation rates, regulatory documents, Tax Code, financial statements, returns, recognition, valuation, accounting.

## KIRISH

Moliyaviy hisobotning maqsadi buxgalteriya hisobi subyektining ma'lum hisobot sanasidagi moliyaviy holati, moliyaviy hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi hamda pul mablag'lari oqimi to'g'risidagi axborotlarni taqdim etish hisoblanadi. Moliyaviy hisobot foydalanuvchiga manfaatli, o'rinli, haqqoniy va shaffof bo'lgan foydali moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

O'z navbatida, moliyaviy hisobotda uzoq muddatli aktivlarga tegishli axborotlarni “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi”da belgilangan foydali moliyaviy axborotning fundamental va axborotning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari bo'yicha aks ettirish hamda moliyaviy hisobotning izohlarida ma'lumotlarni yoritib berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi<sup>1</sup>. Chunki uzoq muddatli aktivlarga tegishli moliyaviy hisobot axborotlari buxgalteriya hisobi subyektining moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish salohiyati va kelgusida iqtisodiy naf keltirish imkoniyatlarini baholashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzoq muddatli aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishni takomillashtirish bilan bog'liq masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq qilib o'rganilgan bo'lib, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida ular o'zlarining nazariy, tashkiliy-uslubiy va amaliy yondashuvlarini keltirib o'tadilar. Xususan, A. Badyay uzoq muddatli moddiy operatsion aktivlar hisobini takomillashtirish borasida olib borgan tadqiqot ishida “asosiy vositalar” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini tadqiq qilib o'rganish asosida “Buxgalteriya balans”da “Asosiy vositalar” ko'rsatkichi o'rniga “Uzoq muddatli moddiy operatsion aktivlar” ko'rsatkichini aks ettirishni taklif qiladi.

1 Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi. <https://lex.uz/docs/6312360>



Shuningdek, muallif buxgalteriya balansining “Uzoq muddatli aktivlar” bo‘limining takomillashtirilgan yangi shaklini taklif etgan. Muallif o‘z yondashuvini quyidagicha izohlaydi: “Buxgalteriya balansi birinchi bo‘limining taklif etilayotgan shakli aktivlarni ularning likvidligi pasayishiga qarab, uzoq muddatli moddiy operatsion aktivlarning har bir turining alohida boshlang‘ich (qayta baholangan) qiymatini va ularning amortizatsiyasini, shuningdek, uzoq muddatli aktivlarni kengaytirilgan ko‘rinishda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa buxgalteriya balansining ushbu bo‘limida shakllantiriladigan ma‘lumotlarning yanada shaffofligini ta‘minlaydi”<sup>2</sup>.

S. Tashnazarov o‘z tadqiqot ishlarida buxgalteriya balansining “Uzoq muddatli aktivlar” qismini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirilgan yangi tahrirda taklif etadi. Uning yozishicha: “Ushbu taklif qilinayotgan ‘Uzoq muddatli aktivlar’ qismi amaldagi buxgalteriya balansini quyidagi ikki yo‘nalishda takomillashtirishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. Chunki buxgalteriya balansi umumlashtirilgan shaklda ushbu hisobot ma‘lumotlarini to‘liq mujassamlashtiradi”<sup>3</sup>.

G. Raximova: “Kompaniyada moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotdagi ma‘lumotlar asosiy vositalar harakatini aks ettiruvchi ma‘lumotlar bilan qiyoslab chiqiladi. Buning uchun esa ‘Mulk, mashinalar va uskunalar’ harakatiga oid ichki hisobot tuzish maqsadga muvofiqdir”, deb ta‘kidlagan holda, “Mulk, mashinalar va uskunalar to‘g‘risida ichki hisobot” shaklini tavsiya qiladi. Shuningdek, “Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar”ning balans qiymatini ularning boshlang‘ich qiymatidan jamg‘arilgan depreziatsiya summasini chegirish orqali aks ettirish tartibi keltirib o‘tilgan<sup>4</sup>.

A. Kozimjonovning ta‘kidlashicha, “1-sonli ‘Moliyaviy hisobotni taqdim etish’ nomli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) talabiga ko‘ra, korxonadagi aktivlarning xarakteri, likvidligi va funksiyasi, majburiyatlarning summasi, xarakteri va muddatlari bo‘yicha baholaganda, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda alohida moddalarni kiritish orqali taqdim etilishi lozim”. Shuningdek, muallif MHXS talablari asosida “Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot” shaklini tavsiya etish bilan cheklangan bo‘lib, ushbu hisobot shaklining amaliyotda qo‘llanilishini tashkiliy-uslubiy va amaliy jihatdan asoslab bermagan. Xususan, tavsiya qilinayotgan hisobot shaklining mazmuni, tarkibiy tuzilishi va uning moliyaviy axborotlarni shakllantirishdagi afzalliklari atroflicha yoritib berilmagan<sup>5</sup>.

F. Usmanov konservatsiya davrida mulk solig‘ini hisob-kitob qilish maqsadida: “Konservatsiya qilingan asosiy vositalar qiymati to‘g‘risida aniq ma‘lumot olish maqsadida korxonada ishchi buxgalteriya balansi tarkibidagi ‘Asosiy vositalar’ moddasiga ‘Konservatsiya davridagi qiymati’ nomli qatorni kiritish kerak”, deb hisoblaydi. O‘z navbatida, muallif buxgalteriya balansida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, eskirish summasi, konservatsiya davridagi qiymati va qoldiq qiymati kabi ko‘rsatkichlarni yoritib berishni tavsiya qiladi. Biroq muallif o‘z tavsiyalarini yetarli darajada asoslab bermaydi<sup>6</sup>.

I. Ismanov: “Uzoq muddatli aktivlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ixcham va yetarli darajada olish imkoniyatini tug‘dirish hamda tahlil qilishni osonlashtirish uchun buxgalteriya hisobi balansining ‘Uzoq muddatli aktivlar’ nomli 1-bo‘limini quyidagicha ko‘rinishda ifodalash maqsadga muvofiq bo‘ladi”, deb ta‘kidlagan. Shuningdek, investitsion mulk obyektlari va biologik aktivlar kabi ayrim hisob obyektlarini alohida aks ettirish masalalari ham muallif tomonidan yetarlicha yoritib berilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, me‘yoriy-huquqiy tahlil, monografik kuzatuv, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda 5-sonli BHMS, 1-sonli, 16-sonli va 36-sonli BHXS talablari asosida “Tahiatosh don mahsulotlari” AJ hamda “Navoiyazot” AJ moliyaviy hisobotlarida uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya hisoblash, qadrsizlanishini aks ettirish va balans qiymatini shakllantirish amaliyoti tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Uzoq muddatli aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini baholashda, avvalo, amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, 5-sonli BHMSda “Haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholanishi mumkin bo‘lgan asosiy vosita aktiv sifatida tan olinganidan so‘ng, keyingi jamg‘arilgan eskirish va qadrsizlanishdan jamg‘arilgan zararlarni chegirgan holda, qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatni aks ettiradigan qayta baholangan qiymatda hisobga olinishi lozim”<sup>7</sup>ligi belgilangan.

2 Бадяй А.С. Совершенствование учета долгосрочных материальных операционных активов. Весн. Беларус. дзярж. экан. ун-та. 2020. № 1 (137). - С. 62-68.

3 Toshnazarov S.N. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016. – 6 b.

4 G.Raximova Asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. Monografiya. – T.: “TIQXMMI” MTU, 2023. – 78 bet.

5 Kozimjonov A. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning o‘ziga xos xususiyatlari. “Iqtisodiyot va ta‘lim” / 2023-yil 1-son. – 246 b.

6 Usmonov F.O. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T.: 2025. 112-113 betlar.

7 5-sonli “Asosiy vositalar” Buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://lex.uz/docs/7058293>



16-sonli BHXS<sup>8</sup>ga asosan esa, buxgalteriya hisobi subyekti asosiy vositalar bo'yicha boshlang'ich qiymat modeli bo'yicha hisob yuritsa, boshlang'ich qiymatdan jamg'arilgan amortizatsiya va aktivning qadrsizlanishidan zarar chegirilgan holda aks ettiriladi. Agarda buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan qayta baholash modeli qo'llanilsa, qayta baholangan qiymatdan keyingi jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan zarar chegirilgan holda aks ettiriladi.

36-sonli "Aktivlarning qadrsizlanishi" BHXS<sup>9</sup>da belgilangan talablar asosida aniqlaydi. Ushbu standartga muvofiq buxgalteriya hisobi subyekti moliyaviy hisobot davri oxirida asosiy vosita qadrsizlanganligining biror ishorasi mavjudligini tekshirishi talab etiladi. Faqat asosiy vositaning balans qiymatidan, uning aniqlangan qoplanadigan qiymati past bo'lgan holatda qadrsizlangan deb baholanadi hamda uning balans qiymati qoplanadigan qiymatga qadar kamaytiriladi. Mazkur kamaytirish qadrsizlanish bo'yicha zarar sifatida tan olinadi.

Milliy amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda buxgalteriya hisobi subyektlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 4-noyabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 181-sonli<sup>10</sup> buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllarini rasmiylashtirish orqali axborotdan foydalanuvchilarga uzoq muddatli aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib kelmoqda. Xususan, tadqiqot obyekti hisoblangan "Tahiatosh don mahsulotlari" AJda BHMS talablariga muvofiq tuzilgan "Buxgalteriya balans"da uzoq muddatli aktivlar tegishli moddalar kesimida quyidagicha aks ettirilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Tahiatosh don mahsulotlari" AJ "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom"<sup>11</sup> bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya balans"da uzoq muddatli aktivlar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirib bergan. Xususan, uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilgan asosiy vositalarning balans qiymati, ularning boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan eskirish summasini chegirish asosida shakllantirish bilan cheklanganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

1-jadval  
"Tahiatosh don mahsulotlari" AJning BHMSga asosan tuzilgan  
"Buxgalteriya balans"da uzoq muddatli aktivlarning aks ettirilishi<sup>12</sup>  
(Sana: 31.12.2025. O'lchov birligi: ming so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010	29 312 082	29 333 064
Eskirish summasi (0200)	011	19 773 223	20 630 375
Qoldiq (balans) qiymati (satr 010 - 011)	012	9 538 859	8 702 689
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)	020	25 288	25 288
Amortizatsiya summasi (0500)	021	24 297	24 297
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	022	991	991
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080)	030	3 153 953	3 153 953
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040	315 674	315 674
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050	2 833 279	2 833 279
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080	5 000	5 000
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo'yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910,0920,0930,0940)	110	1 230 628	1 230 628
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo'lim bo'yicha jami (satr.012+022+030+090+100+110+120)	130	13 924 431	13 088 261

8 16-sonli "Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/docs/6312360>

9 36-sonli "Aktivlarning qadrsizlanishi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/docs/6312360>

10 <https://lex.uz/uz/docs/-7194594>

11 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz/uz/docs/7194594>

12 "Tahiatosh don mahsulotlari" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Fikrimizcha, bunday yondashuv ikki asosiy omil ta'sirida shakllangan. Birinchidan, jamiyat tomonidan aktivlar bo'yicha qadrsizlanish alomatlari mavjud emas, deb baholanganligi sababli moliyaviy hisobotda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qadrsizlanishi bo'yicha axborotlar ochib berilmagan. Ikkinchidan, amalda qo'llanilayotgan qat'iy belgilangan moliyaviy hisobot shakllari hisobot moddalarini erkin detallashtirish imkoniyatini ma'lum darajada cheklaydi. Chunki mazkur holat qadrsizlanish, qayta baholash va muayyan aktiv turlari bo'yicha axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish orqali axborotdan foydalanuvchilar ehtiyojlarini inobatga olish imkonini bermaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy hisobotning shaklidan ko'ra, uning mazmuniga, ya'ni taqdim qilinadigan axborotning haqqoniy va foydalanuvchi uchun ahamiyatli bo'lishiga talab qo'yiladi. Bu esa buxgalteriya hisobi subyektlariga moliyaviy hisobotni taqdim etishda ma'lum darajada professional mulohaza yuritish va moslashuvchanlik huquqini beradi.

Milliy hisob tizimida MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari uchun yuqorida qayd etilgan Nizom bilan moliyaviy hisobot shakllari tasdiqlangan. Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobi subyektlari mazkur moliyaviy hisobot shakllarini belgilangan tartibda rasmiylashtirgan holda axborotdan foydalanuvchilarga taqdim etib kelmoqda. Jumladan, tadqiqot obyekti bo'lgan "Navoiyazot" AJning uzoq muddatli aktivlari to'g'risidagi axborotlar MHXS talablari asosida tuzilgan "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da tegishli moddalar kesimida quyidagicha aks ettirilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balans qiymatida "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da aks ettirilganligini ko'rish mumkin. 1-sonli BHXS<sup>13</sup> va 16-sonli BHXS<sup>14</sup>da belgilangan talablar bunday yondashuvni amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu bois, "Navoiyazot" AJ tomonidan uzoq muddatli aktivlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar, xususan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiyasi, qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar va ularning balans qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobot izohlarida ochib berilgan (2-jadval).

2-jadval  
"Navoiyazot" AJning MHXS asosida tuzilgan "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ida uzoq muddatli aktivlarning aks ettirilishi<sup>15</sup>  
(mln. so'm.)

Ko'rsatkichlar	01-yanvar 2025-yil	01-yanvar 2024-yil
<b>Aktivlar</b>		
Asosiy vositalar	6 242 931	6 301 110
Nomoddiy aktivlar	20 067	1 833
Ulushli ishtirok etish usuli bilan hisobga olinadigan investitsiyalar	299 754	216 822
Boshqa investitsiyalar	4 881	5 457
Uzoq muddatli bitimlar va boshqa debitorlik qarzlari	131 655	6 860
Kechiktirilgan soliq aktivlari	1 077 575	1 143 636
Uzoq muddatli aktivlar	7 776 863	7 675 718

Olib borilgan tadqiqot natijalariga, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosida belgilangan foydali moliyaviy axborotning sifat tavsiflariga tayangan holda, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq, mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlar manfaatlariga xizmat qiladigan BHMS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarining ishchi "Buxgalteriya balans"da uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar alohida satrlarda ochib berish hamda ularning qoldiq (balans) qiymatini boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan ko'rilgan zarar summalarini chegirish orqali shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval).

13 1-sonli "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/docs/6312360>

14 16-sonli "Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/docs/6312360>

15 "Navoiyazot" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



3-jadval

Buxgalteriya balansida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning balans qiymatini shakllantirishning taklif etilayotgan varianti<sup>16</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200)	011		
Qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar (0290)	012		
Qoldiq (balans) qiymati (satr 010 – 011 – 012)	013		
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar (0590)	022		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 – 021 – 023)	023		

Buxgalteriya balansida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning balans qiymatini 3-jadvalda taklif etilgan shaklda shakllantirib, ochib berish quyidagilarga imkon beradi:

birinchidan, moliyaviy hisobotda uzoq muddatli aktivlar, xususan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi axborotlarning haqqoniyligi, shaffofligi va tahliliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar alohida satrlarda ochib berish orqali axborotdan foydalanuvchilarga mazkur aktivlarning real iqtisodiy holati va ularning kelgusida iqtisodiy naf keltirish imkoniyatlarini aniqroq baholash imkonini beradi;

uchinchidan, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq (balans) qiymatini, ularning boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan zarar summalarini chegirish orqali shakllantirish hisobot sanasida "Buxgalteriya balansida"da ularning haqqoniy qiymatini ishonchli aks ettirilishini ta'minlaydi.

MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarida "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom"<sup>17</sup> bilan tasdiqlangan "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot" shaklida uzoq muddatli aktivlar balans qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Mazkur yondashuvni MHXSda belgilangan "Haqqoniy taqdim etish" tamoyilining muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlash mumkin. Chunki ushbu tamoyilga muvofiq moliyaviy hisobotda uzoq muddatli aktivlar, jumladan, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ularning boshlang'ich (qayta baholangan) qiymatidan jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan ko'rilgan zarar summalarini chegirilgan holda hisobot sanasidagi balans qiymatida aks ettiriladi. Bunday yondashuv buxgalteriya hisobi subyektlarining moliyaviy holatini obyektiv va shaffof baholash imkonini ta'minlaydi.

Albatta, hisobot sanasiga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning dastlabki tan olishdagi boshlang'ich qiymati, qayta baholangan qiymati, jamg'arilgan eskirishi va qadrsizlanishdan ko'rilgan zarar hamda balans qiymati to'g'risidagi axborotlar moliyaviy hisobotga izohlarda ochib beriladi. Chunki 1-sonli "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" BHXSga muvofiq, moliyaviy hisobotga izohlar sifatida ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar bayoni keltirilishi belgilangan.

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarining moliyaviy hisobot shakllari tarkibiga kiruvchi moliyaviy hisobotga izohlarda uzoq muddatli aktivlarga doir ochib berilishi lozim bo'lgan axborotlar tarkibi va mazmuni tegishli MHXS talablari asosida belgilangan. Xususan, 16-sonli BHXSda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobot izohlarida ochib berishga doir talablar 74-bandda belgilangan. Mazkur talabga muvofiq, buxgalteriya hisobi subyektlari: "Moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarning har bir turkumi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ochib berilishi kerak: (a) yalpi balans qiymatini aniqlash uchun qo'llanilgan baholash asoslari; (b) eskirishni hisoblash uchun foydalanilgan usullar; (v) foydali xizmat muddatlari va eskirishni hisoblashning foydalanilgan me'yorlari; (g) davr boshiga va oxiriga bo'lgan yalpi balans qiymati va jamg'arilgan eskirish summasi (qadrsizlanish bo'yicha yig'ilgan zararlar bilan umumlashtirilgan); va (d) davr boshiga va oxiriga bo'lgan balans qiymatini ko'rsatadigan solishtirma tuzilishi lozim".

<sup>16</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz/uz/docs/7194594>



Milliy amaliyotda asosiy vositalarning davr boshiga va oxiriga bo'lgan balans qiymatidagi o'zgarishlar solishtirishi va unda ma'lumotlarni ochib berishning yagona uslubiy ta'minoti mavjud bo'lmaganligi bois, MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari asosiy vositalarning balans qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi solishtirmani 16-sonli BHXSda belgilangan umumiy talablar asosida shakllantirgan holda taqdim etishmoqda. Jumladan, tadqiqot obyekti bo'lgan "Navoiyazot" AJ MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyekti bo'lib, jamiyat tomonidan moliyaviy hisobot izohlarida asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagicha ochib berilgan (4-jadval).

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tadqiqot obyekti bo'lgan "Navoiyazot" AJ tomonidan asosiy vositalar balans qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlar umumlashtirilgan tartibda ochib berilgan. Jumladan, jamiyat tomonidan asosiy vositalar tarkibida tugallanmagan qurilishga doir ma'lumotlar ham aks ettirilgan. Fikrimizcha, tugallanmagan qurilishni asosiy vositalar tarkibida tasniflash uslubiy jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki 16-sonli BHXS talablariga muvofiq, asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun aktiv foydalanishga tayyor holatga keltirilgan bo'lishi lozim (4-jadval).

4-jadval  
"Navoiyazot" AJ moliyaviy hisobotida asosiy vositalar balans qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida axborotlarni yoritib berilishi to'g'risida ma'lumot<sup>18</sup>

Ko'rsatkichlar	Bino va inshootlar	Mashina va uskunalar	Transport vositalari	Boshqa	Tugallanma-gan qurilish	Jami
<b>Tannarx yoki shartli boshlang'ich qiymati</b>						
1-yanvar 2023-yilga qoldiq	2 495 994	4 724 953	28359	391 249	112 308	7 752 863
Kirim	-	-	-	1	110 670	110 671
Asosiy vositalar guruhlari o'rtasida qayta taqsimlash	-	-	-	(12 268)	12 268	-
Foydalanishga topshirish	7 509	53 001	1 488	-	(61 998)	-
Chiqim	(36 807)	(5 697)	(214)	-	-	(42 718)
Zaxiraga o'tkazish	-	-	-	-	(7 415)	(7 415)
31-dekabr 2023-yilga qoldiq	2 466 696	4 772 257	29 633	378 982	165 833	7 813 401
1-yanvar 2024-yilga qoldiq	2 466 696	4 772 257	29 633	378 982	165 833	7 813 401
Kirim	-	-	-	104 307	257 688	361 995
Foydalanishga topshirish	55 951	136 895	2094	31962	(226 902)	-
Chiqim	(475)	(14064)	(369)	-	-	(14 908)
Zaxiraga o'tkazish	-	-	-	-	(35 453)	(35 453)
31-dekabr 2024-yilga qoldiq	2 522 172	4 895 088	31 358	515 251	161 166	8 125 035
<b>Amortizatsiya va qadrsizlanishdan zararlar</b>						
1-yanvar 2023-yilga qoldiq	273 196	619 252	17 516	196 085	35 018	1 141 067
Hisobot davridagi amortizatsiya	97 530	233 699	1 720	44 450	-	377 399
Qadrsizlanish	-	-	-	-	9 493	9 493
Chiqim	(11 345)	(4 109)	(214)	-	-	(15 668)
31-dekabr 2023-yilga qoldiq	359 381	848 842	19 022	240 535	44 511	1 512 291
1-yanvar 2024-yilga qoldiq	359 381	848 842	19 022	240 535	44 511	1 512 291
Hisobot davridagi amortizatsiya	96 412	250 970	2 537	44 570	-	394 489
Qadrsizlanishning tiklanishi	-	-	-	-	(14 523)	(14 523)
Chiqim	(339)	(9 455)	(359)	-	-	(10 153)
31-dekabr 2024-yilga qoldiq	455 454	1 090 357	21 200	285 105	29 988	1 882 104
<b>Balans qiymati</b>						
31.12.2023-yil holatiga	2 107 315	3 923 415	10 611	138 447	121 322	6 301 110
31.12.2024-yil holatiga	2 066 718	3 804 731	10 158	230 146	131 178	6 242 931



Albatta, jamiyat tomonidan tugallanmagan qurilishning uzoq muddatli aktiv sifatida kelgusida asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinishi inobatga olingan holda, axborotni umumlashtirilgan tarzda taqdim etish maqsadida mazkur yondashuv qo'llanilgan. Biroq buxgalteriya hisobi maqsadlarida bunday yondashuv uslubiy jihatdan to'g'ri hisoblanmaydi.

Shuningdek, jamiyatning "Boshqa asosiy vositalar" guruhining qiymati nisbatan yuqori ulushni tashkil qilgan bo'lsa-da, uning tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar to'g'risida izohlarda batafsil ma'lumotlar keltirilmagan. Bu esa axborotdan foydalanuvchilar uchun asosiy vositalar tarkibi to'g'risida to'liq ma'lumot olish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, asosiy vositalarga doir axborotlarning umumlashtirilgan holda yoritib berilganligi 16-sonli BHXSda belgilangan talablarning to'liq bajarilishini ta'minlamaydi. Shu bois, MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotga izohlarda asosiy vositalarning har bir guruhi bo'yicha tasniflangan holda hisobot sanasi boshi va oxiridagi boshlang'ich (qayta baholangan) qiymati, jamg'arilgan eskirishi, qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar hamda qoldiq (balans) qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq va batafsil ochib berish maqsadida "Asosiy vositalar balans qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risida solishtirma" shakli taklif etildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, uzoq muddatli aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari talablariga muvofiq, moliyaviy hisobotda asosiy vositalar balans (qoldiq) qiymatida aks ettirilishi lozim. Shu bois, buxgalteriya hisobi subyektlarining "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ida asosiy vositalarning balans qiymatini ularning boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan ko'rilgan zarar summalarini chegirish orqali shakllantirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotda asosiy vositalar balans qiymatining to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash bilan birga, moliyaviy axborotning haqqoniyligi va ishonchliligini yanada oshirishga xizmat qiladi;

mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlarning moliyaviy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida ishchi "Buxgalteriya balans"da asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar alohida satrlarda ochib berish, shuningdek, ularning qoldiq (balans) qiymatini boshlang'ich qiymatidan jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan ko'rilgan zarar summalarini chegirish orqali shakllantirish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Shu bilan birga, buxgalteriya balansida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning balans qiymatini taklif etilgan tartibda shakllantirgan holda aks ettirish taklif qilindi. Bu, albatta, axborotdan foydalanuvchilarga aktivlarning iqtisodiy holatini aniqroq baholash imkonini beradi;

MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotga izohlarda asosiy vositalarning har bir guruhi bo'yicha tasniflangan holda hisobot sanasi boshi va oxiridagi balans qiymatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi solishtirma shakli ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobot izohlarida asosiy vositalarga doir axborotlarni ochib berish bo'yicha 16-sonli BHXS talablarining to'liq bajarilishini, moliyaviy axborotlarning yanada batafsil, ahamiyatli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi // URL:<https://lex.uz/docs/6312360>
2. Бадяй А.С. Совершенствование учета долгосрочных материальных операционных активов. Вестн. Беларус. дзярж. экан. ун-та. 2020. № 1 (137). - С. 62-68.
3. Toshnazarov S.N. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016. – 6 b.
4. G.Raximova Asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. Monografiya. – T.: "TIQXMMI" MTU, 2023. – 78 bet.
5. Kozimjonov A. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning o'ziga xos xususiyatlari. "Iqtisodiyot va ta'lim" / 2023-yil 1-son. – 246 b.
6. Usmonov F.O. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T.: 2025. 112-113 betlar.
7. I.N.Ismanov. Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. Monografiya. "Classik", 2021. – 20 b.
8. 5-sonli "Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining milliy standarti // URL: <https://lex.uz/docs/7058293>
9. 16-sonli "Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti // URL: <https://lex.uz/docs/6312360>



10. 36-sonli “Aktivlarning qadsizlanishi” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti // URL: <https://lex.uz/docs/6312360>

11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 181-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi Nizom” // URL: <https://lex.uz/uz/docs/7194594>

12. 1-sonli “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti // URL: <https://lex.uz/docs/6312360>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>